

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"  
Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti  
rek托ri G.I.Muxamedov**

**“ ” “ ” 2025 yil**



**19.00.01 – PSIXOLOGIYA TARIXI VA NAZARIYASI. UMUMIY  
PSIXOLOGIYA. SHAXS PSIXOLOGIYASI IXTISOSLIGI BO'YICHA OLIY  
TA'LIM DAN KEYINGI TA'LIM INSTITUTIGA KIRISH UCHUN IXTISOSLIK  
FANIDAN DASTUR**

**CHIRCHIQ-2025**

## Kirish

Ushbu dastur psixologiya tarixi va nazariyasi, umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi fanining tadqiqot uslublari, obyektlari, zamonaviy psixologiyaning asosiy metodologik aspektlari, shaxs muammolari va ularni yechishdagi o‘rnini o‘rganishda nazariy amaliy masalalarни yechish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Psixologiya fanining predmeti psixikada shaxsning psixik bilish jarayonlari, shaxsning individual psixologik xususiyatlari, shaxsning psixik holatlari aks ettirilgan.

Psixologiya — inson ruhiyati, ongi, xulq-atvori, idrok va tafakkuri, emotsiyal holatlari va individual xususiyatlarini o‘rganadigan fan sifatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida muhim o‘rin egallaydi. U ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, dastlab falsafiy tafakkur doirasida shakllangan, keyinchalik esa mustaqil ilmiy yo‘nalishga aylangan. Bugungi kunga kelib, psixologiya fani ko‘plab ixtisosliklarga ajralgan bo‘lib, ularning har biri inson hayotining ma’lum bir sohasidagi psixik hodisalarini chuqr tahlil qilishga xizmat qiladi. Shulardan eng muhimlari — umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi hamda psixologiya tarixi va nazariyasi yo‘nalishlaridir.

Mazkur ixtisoslik — 19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutida ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuritishni istagan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha ta’lim oluvchi tadqiqotchilar zamonaviy psixologiya fanining metodologik asoslari, asosiy nazariy maktablari, klassik va zamonaviy yo‘nalishlar, shaxs rivojlanishining psixologik qonuniyatlarini, individual va ijtimoiy xulq-atvor omillari, psixologik izlanish uslublari bo‘yicha chuqr bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Dastur psixologiya sohasida ilmiy daraja olishni istagan tadqiqotchilarga fundamental va amaliy psixologik bilimlarni puxta o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, ularni mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy maqolalar yozish, amaliyotga tadbiq etiladigan tadqiqotlar rejallashtirish va bajarish, zamonaviy diagnostika va psixologik tahlil usullaridan foydalanishga tayyorlaydi.

Shaxs psixologiyasi insonning individual rivojlanishi, uning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri, motivatsiya, o‘zini anglash, shaxsning ijtimoiylashuvi kabi muhim masalalarini o‘rganadi. Umumiy psixologiya esa psixik jarayonlar (idrok, e’tibor, xotira, tafakkur, nutq, emotsiyalar, irodaviy jarayonlar)ning umumiy qonuniyatlarini tahlil qiladi. Psixologiya tarixi va nazariyasi esa psixologik bilimlarning tarixiy rivojlanishi, falsafiy asoslari, fan sifatida shakllanish bosqichlari, turli maktablar va yo‘nalishlarning qarashlari bilan tanishtiradi.

Mazkur dastur, eng avvalo, tadqiqotga yo‘naltirilgan va tanqidiy fikrlashga asoslangan ta’lim yondashuvini ilgari suradi. U orqali psixologiya sohasida chuqr ilmiy izlanishlar olib borish, ilg‘or nazariy yondashuvlarni amaliy muammolarga qo‘llashga tayyor yuqori malakali kadrlar yetishtirish maqsad qilingan.

## **ASOSIY QISM**

### **Psixologiya tarixi**

Psixologiya tarixi fanining predmeti va metodlari. Psixologiyani rivojlanish bosqichlari. Psixologiyani rivojlanishining asosiy omillari va tamoyillari. Psixologiyani dastlabki va o'rta asrlarda rivojlanishi. Antik davrning psixologik nazariyalari. O'rta asrlarda psixologiyaning umumiy tavsifi. V-XI asrlarda yevropa psixologiyasini rivojlanishi. Yangi davrda psixologiyani rivojlanishi va uning birinchi nazariyasi. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm. XVIII-XIX asrlarda psixologiyani rivojlanishi. XVIII asr psixologiyasiga umumiy tavsif. Fransuz va nemis psixologiyasini rivojlanishi. Assotsiativ psixologiyani yuzaga kelishi va rivojlanishi. Assotsiativ psixologiyaning klassik nazariyasi. XIX asrning ikkinchi yarmida assotsiativ psixologiyani rivojlanishi. Eksperimental psixologiyani shakllanishi. XIX –XX asrlarda xorijda psixologiyani rivojlanishi. Yangi psixologik maktablarni shakllanishi va rivojlanishi. Strukturalizm. Vyusburt muktabi. Fransuz psixologiya muktabi. XX asrda psixologiyani rivojlanishi. Psixologiyada metodologik inqiroz. Bixevoirizmga umumiy tavsifnomasi. Neobixevoirizmni yuzaga kelishi va rivojlanishi. Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif. Psixoanaliz va uning rivojlanishi. K.Yungning analitik psixologiyasi. Adlerning individual psixologiyasi. XX asrning ikkinchi yarmida yangi yo'naliishlarni yuzaga kelishi. Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi. Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiysi. Genetik psixologiya. Rossiyada psixologiyani rivojlanishi.

### **Umumiy psixologiya**

Umumiy psixologiya fanining predmeti, vazifalari, metodlari. Shaxsn o'rganishning metodologik asoslari. Inson va insoniyat haqidagi fan. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Psixologiya fanining tamoyillari. Psixologiyaning asosiy metodlari. Psixologiya zamonaviy fanlar tizimida. Ruh va ong haqidagi antik davr va o'rta asrlardagi qarashlari. Introspekteziya metodi va o'zini o'zi kuzatish muammosi. Bixevoirizm xulq-atvor haqidagi fan. Psixikaning rivojlanish tarixi. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Psixologiyaning sohalari.

Psixika va uning evolyutsiyasi. Psixika haqida tushuncha. Hayvon psixikasining rivojlanishi. Ong va uning taraqqiyoti. Ong haqida tushuncha, inson psixikasini rivojlanishining tarixiy-madaniy konseptsiyasi. Inson psixikasining rivojlanishi. Inson psixikasining fiziologik asosi. Ongsizlik muammosi. Faoliyatning psixologik tavsifi. Faoliyatning psixologik nazariyalari. Faoliyatning operatsional-texnik jihatlari. Harakatlar fiziologiyasi va faollik fiziologiyasi. Shaxs haqida tushuncha. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya. Shaxs shakllanishi va rivojlanishi. Shaxs nazariyalari.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqat turlari. Diqqat xususiyatlari. Diqqatning rivojlanishi. Sezgi haqida tushuncha. Sezgi turlari. Sezgining xususiyatlari va tavsifi. Sensor adaptatsiya va sezgilarning o'zaro ta'siri. Sezgining rivojlanishi. Idrokning umumiy tavsifnomasi. Idrokning nerv-fiziologik asosi. Idrok xususiyatlari va turlari. Idrokning individual farqlari va uning rivojlanishi. Idrokda predmet va fon. Fazoni, vaqtini, harakatni idrok qilish. Xotira haqida tushuncha va tavsifi. Xotira turlari. Xotira

jarayonlari va mexanizmlari. Xotiradagi individual farqlar va rivojlanishi. Xayol haqida tushuncha va uning inson psixik faoliyatidagi roli. Xayol turlari. Xayoliy obrazlarni qayta ishlash mexanizmlari. Xayolning individual farqlar va rivojlanishi. Xayol va ijod. Tafakkur tabiat va uning turlari. Tafakkur shakllari. Tafakkurni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari. Murakkab mantiqiy masalalarni yechish va ijodiy tafakkur. Tafakkurning rivojlanishi. Nutq haqida tushuncha. Nutqning fiziologik asoslari. Nutqni o'rganishga nazariy yondashuv. Nutqning turlari. Nutqning rivojlanishi. Hissiy irodaviy soha psixologiyasi. Irodaviy harakatlar haqida tushuncha. Iroda borasidagi psixologik nazariyalar. Irodaviy harakatlarning fiziologik motivatsion asoslari. Irodaviy harakat tuzilishi va rivojlanishi. Hissiyotning umumiy tavsif va uning turlari. Hissiyotning fiziologik asosi va psixologik nazariyalar. Hissiyotning rivojlanishi va inson hayotidagi o'rni. Shaxs yo'nalganligi va faoliyat motivi haqida tushuncha. Motivatsiya haqidagi nazariyalar. Motivatsion soha rivojlanishining asosiy qonuniyatları. Individual psixologiya. Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyat rivojlanishi va individual farqlar. Inson qobiliyatining biologik asoslari. Qobiliyatning rivojlanishi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi ta'limotlarning qisqacha mazmuni. Temperamentga psixologik tavsif va inson faoliyati. Xarakter haqida tushuncha. Xarakterni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv. Xarakterning shakllanishi.

## Shaxs psixologiyasi

Shaxs psixologiyasi fani shaxs psixologiyasining dolzarb va muhim muammolarini o'rganishga qaratilgan. Eng muhimi shaxs psixologiyasi bo'limida individ, shaxs, individuallik, xorij va mahalliy psixologiyada shaxs muammosi tadqiq etishga qaratilgan nazariy yondashuvlar, qarashlar o'z aksini topgan. Shaxs haqida tushuncha. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya. Shaxs shakllanishi va rivojlanishi. Shaxs nazariyaları.

Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida. "Shaxs" tushunchasi. "Homo sapiens" – "aqli zot" tushunchalari. Makro bosqichdagi ta'sirlar. Mikro bosqichdagi ta'sirlar. Nativizm. Empirizm. G.Leybnis, F.Galtonlarning ilmiy taddiqotlari.

Xarakter va shaxs. Xarakter. V.S.Merlinning xarakter xususidagi qarashlari. S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxsning o'ziga xosligini ifodalovchi xarakterologik tizim. Faoliyatga nisbatan yondashuvlarga xos xarakter tizimlari. Nutqining xususiyatlari. Tashqi qiyofa. Fiziognomika. Xiromantiya. Konstitusion nazariyalar. Z.Freyd bo'yicha shaxs tuzilishi va psixoseksual rivojlanish bosqichlari. Psichoanalitik terapiya. A.Adler nazariyasining mohiyati K.Yung analitik psixologiyasining asosiy tavsifi. K.Yung bo'yicha psixikaning tuzilishi. K.Yung bo'yicha shaxs shakllanishi. Bixevoirizm yo'nalishi haqida tushuncha. Bixevoirizmdagi asosiy qarashlar. Bixevoirizm metodlari. Julian Rotterning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi. J.Rotter nazariyasining terapiyadagi o'rni. Djordj Kellining shaxs kognitiv nazariyasi.

Shaxs konstruktleri. Kellining shaxsiy tuzilishi nazariyasining asosiy fikri. Gordon Olport: shaxs dispozitsional nazariyasi. Shaxs xususiyatlarining konseptsiyasi. Reymond Kettel: shaxs nazariyasi strukturasi. K.Rodjersning inson tabiatini haqidagi fikrlari, Rodjers fenomenologiyasi. K.Rodjers bo'yicha Men siymosi va uning rivojlanishi. Psixologiyada shaxsning o'z-o'zini anglashi va o'z-o'zini tarbiyalashi

muammosi. Shaxs psixodiagnostikasining asosiy mazmuni va muammolari. Shaxs psixodiagnostikasida so‘rovnomalardan foydalanish muammolari. Ekstraversiya va introversiya shaxs tipologiyasi asosi sifatida. Shaxsning shakllanishida muloqotning ahamiyati.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. B.N.Turakulov, M.B.Burxanova, N.B.Xusanova «Umumiy psixologiya» Toshkent-“Zebo print” 2025y
2. A.I.Rasulov, O.U.Avlayev, S.M.Yuldasheva, G.I.Mirzaraximova «Shaxs psixologiyasi» Toshkent-“Sarbon”2024 y
3. O.U.Avlayev, Sh.R.Samarova, S.R.Mirzayeva «Psixologiya tarixi» Toshkent “Zebo print” 2025 y.
4. O.U.Avlayev, Sh.R.Samarova, S.R.Mirzayeva «Psixologiya nazariyasi va tarixi» Toshkent-2022y
5. G‘oziyev E. G‘. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.
6. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008 yil.
7. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil.
8. Klimov YE.A. «Obshaya psixologiya». Rech, Moskva-2001.
9. Shtern A.S. «Vvedeniye v psixologiyu» M.: Akademiya Spb 2002.
10. David G. Mers “Psychology”. NY, 2010. WORTH PUBLISHERS 118p.
11. Abramova.G.S. «Vozrastnaya psixologiya»: Uchebnoye posobiye dlya studentov vuzov.-M., “Izd-vo” 2001.- 621s.
12. Krisko V.G. «Psixologiya i pedagogika» M.: Xarvest – AST 2000.
13. Zimnyay.I.A «Pedagogicheskaya psixologiya»: Uchebnik dlya vuzov. –M., “Izd-vo” 2002.-384s.
14. Rean A.A., Bordovskaya.Y.N, Rozum.S «Psixologiya i pedagogika» SPb.: Piter 2007.
15. Y.Y.Sapogova Psixologiya razvitiya cheloveka Aspekt Press 2005 g.

### **Internet saytlari**

<http://www.edu.uz>

<http://www.gov.uz>

<https://www.cspu.uz>

<https://www.natlib.uz>

<https://unilibrary.uz/>

**19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari uchun savollar majmuasi**

1. Ong haqida tushuncha, inson psixikasi rivojlanishining tarixiy-madaniy kontseptsiyasi.
2. Antik davrning psixologik nazariyalari. Ruh va ong haqidagi antik davr va o‘rtalarda qarashlari.
3. O‘rtalarda psixologiyaning umumiy tavsifi.
4. V-XI asrlarda yevropa psixologiyasini rivojlanishi. Yangi davr psixologiyasiga umumiy tavsifnomasi.
5. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm.
6. XIX asrning ikkinchi yarmida assotsiativ psixologiyani rivojlanishi. XX asrning ikkinchi yarmida yangi yo‘nalishlarni yuzaga kelishi.
7. XIX –XX asrlarda xorijda psixologiyani rivojlanishi.
8. Assotsiativ psixologiyani yuzaga kelishi va rivojlanishi.
9. Psixologiyani rivojlanishining asosiy omillari va tamoyillari. Psixikaning evolyusyon taraqqiyot bosqichlari.
10. XIX-XX asrlarda psixologiyaning asosiy nazariy maktablari (bixevoirizm va assotsinizm, gumanistik psixologiya va neobixevoirizm).
11. Adlerning individual psixologiyasi.
12. Psixikaning filogenezda rivojlanishi (Leontev-Fabri nazariyasi bo‘yicha).
13. Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif.
14. Vyusburt maktabi.
15. Z.Freydning klassik psixoanalizida psixik rivojlanish.
16. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi. Rodgers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiyasi.
17. Eksperimental psixologiyani shakllanishi.
18. Ong va uning taraqqiyoti. Ongsizlik muammosi.
19. Yangi psixologik maktablarni shakllanishi va rivojlanishi.
20. Genetik psixologiya.
21. Rossiya da psixologiyani rivojlanishi.
22. Psixologiya fanining hozirgi zamon metod va metodologiyasi. Psixologiyaning hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolari.
23. Iroda haqida umumiy tushuncha. Irodaviy aktlarning tuzilishi.
24. Tafakkur – subektning psixologik bilish faoliyati sifatida. Tafakkur va ichki nutq.
25. Tafakkurni o’rganishda nazariy va emperik yondoshuv.
26. Psixikaning vujudga kelish muammolari.
27. Xayol to‘g‘risida umumiy tushuncha. Xayol turlari. Obrazlarning qayta tiklanish

- asoslari.
- 28. Muomalaning psixologik tavsifi. Muomalaning tuzilishi, sharoitlari, mexanizmlari.
  - 29. Temperamentning diagnostika metodlari va ularning nazariy asoslari, qo'llash jarayonlari.
  - 30. Psixologiyada xarakter muammosi. Xarakterning tuzilishi va uning asosiy xususiyatlari.
  - 31. Xarakterni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv. Xarakterning shakllanishi.
  - 32. Idrokning nerv fiziologik asosi, konstantligi va uning eksperimental o'rganilishi.
  - 33. Emotsional holatlar to'g'risida umumiy tushuncha. Emotsional holatlarni klassifikatsiyalash muammolari.
  - 34. Diqqatning fiziologik asoslari. Umumiy faollashtirishning neyrofiziologik mexanizmlari.
  - 35. Xotiraning fiziologik va biologik asoslari. Xotiraning sodda ko'rinishi va murakkab assotsiativ xotira.
  - 36. Diqqatning turlari. Ixtiyoriy diqqatning shakllanish shart-sharoitlari.
  - 37. Sezgirlik dinamikasi. Adaptatsiya va uning mexanizmlari. Sensabilizatsiy.
  - 38. Hissiyot va emotsiy. Emotsiyaning fiziologik mexanizmlari.
  - 39. Temperament to'g'risida hozirgi zamon ta'limoti.
  - 40. Qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishi. Qiziqishlar to'g'risida umumiy tushuncha.
  - 41. Idrokning nerv fiziologik asosi. Idrokning fenomenlari va xususiyatlari. Idrok jarayoni va uning bosqichlari (persepsiya, appersepsiya, antisipatsiya).
  - 42. Nutq to'g'risida umumiy tushuncha. Nutq turlari va funksiyalari, nutqning fiziologik asoslari.
  - 43. Motivatsiya haqida tushuncha. Motivatsiya nazariyalari. Motivatsiyani eksperimental tadqiq qilish.
  - 44. Xotira haqida umumiy tushuncha. Xotiraning tuzilishi va funksiyalari. Xotiraning tipologik va individual xususiyatlari.
  - 45. Xayolning fenomenlari va ularning talqini Xayolning shakllari va ularning talqini.
  - 46. Sezgi jarayoni nazariyalari. Sezgi turlari tasnifi va ularning xususiyatlari.
  - 47. Tafakkurning shakllari to'g'risida tushuncha. Fikr yuritish operatsiyalari va ularning talqini.
  - 48. Motivlar klassifikatsiyasi va ularning tahlili.
  - 49. Qobiliyat, iste'dod, talant va daholikning psixologik talqini.
  - 50. Shaxs haqida tushuncha. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar.
  - 51. Shaxs shakllanishi va rivojlanishining harakatga keltiruvchi kuchlari va shart-sharoitlarini izohlab bering.

52. Shaxs psixologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalariga ta’rif bering.
53. Z.Freyd bo‘yicha shaxs tuzilishi va psixoseksual rivojlanish bosqichlari.
54. Odam va individ tushunchalarining nisbati, individ va individuallik tushunchalari mazmunini izohlang.
55. Kellining kognitiv nazariyasiga ta’rif bering.
56. Shaxs tushunchasi psixologiyaning markaziy kategoriyalardan biri sifatida, uning individ va individuallik tushunchalari bilan munosabati.
57. Krechmer insonlarning tana tuzilishiga qarab ularni necha guruhga ajratgan?
58. Shaxsnинг psixologik tuzilish modellari tahlilini izohlang?
59. Olportunig shaxs dispozitsion nazariyasiga ta’rif bering.
60. K.Yungning analistik psixologiya nazariyasiga ta’rif bering.
61. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarining mazmunini asoslang?
62. S.L.Rubinshteyn shaxs tuzilishini necha qismga bo‘lgan.
63. K.Rodjersning shaxs nazariyasiga ta’rif berib izohlang.
64. Psixologiyada shaxs strukturasi muammosi.
65. E.Erikson shaxs rivojlanishining nechta davrga ajratgan.
66. Shaxs psixologiyasidagi temperamentning konstitutsional nazariyalarini.
67. Ekstraversiya va introversiya shaxs tipologiyasi asosi sifatida, tipologik shaxs so‘rovnomalari.
68. Shaxs psixodiagnostikasining asosiy mazmuni va muammolari shaxs psixodiagnostikasida so‘rovnomalardan foydalanish muammolari.
69. Shaxs psixodiagnostikasida obektiv testlar va proaktiv metodikalarni qo‘llash muammolari.
70. Shaxsnинг shakllanishida muloqotning ahamiyati.

**Pedagogika fakulteti dekani**

**Usarov J.E**

**Psixologiya kafedrasi mudiri**

**Eshnayev N.J**